

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QISQARTMA SO‘ZLARNING RASMIY VA NORASMIY NUTQDA STILISTIK O‘ZIGA XOSLIGI

Salomova Gavhar Abdinazarovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785447>

Annotatsiya. Mazkur ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma so‘zlarning rasmiy va norasmiy nutqda stilistik o‘ziga xoslik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qisqartmalarning (abbreviatsiya, akronim, initsializm va boshqa shakllar) matndagi funksional yuklamasi, ularning kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi o‘rni hamda muallif uslubini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridan olingan misollar asosida qisqartmalarning personaj nutqini individuallashtirish, zamonaviylik va ijtimoiy muhitni ifodalash, matn ixchamligini ta‘minlash kabi pragmatik vazifalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: termin, qisqartma, tarjima, ekvivalentlik, ilmiy matn, ingliz tili, o‘zbek tili.

Аннотация. В данной статье рассматриваются стилистические и прагматические особенности употребления сокращённых слов в английском и узбекском языках. Анализируются их функциональные характеристики в официальной и неофициальной речи, а также роль в формировании коммуникативной направленности текста. Особое внимание уделяется таким видам сокращений, как аббревиации, акронимы и инициализмы, их значению в художественных и научных текстах. На основе сопоставительного анализа выявляются сходства и различия в использовании сокращений в двух языках, их влияние на индивидуализацию речи персонажей, передачу социального контекста и обеспечение лаконичности высказывания.

Ключевые слова: термин, сокращение, перевод, эквивалентность, научный текст, английский язык, узбекский язык.

Abstract. This study analyzes the stylistic specificities of abbreviated words in English and Uzbek as used in formal and informal discourse. The research examines the functional load of abbreviations (including abbreviations, acronyms, initialisms, and other forms) within texts, their role in achieving communicative purposes, and their significance in shaping the author’s style. Based on examples drawn from English and Uzbek literary texts, the study explores the pragmatic functions of abbreviations, such as individualizing characters’ speech, expressing modernity and social environment, and ensuring textual conciseness.

Keywords: term, abbreviation, translation, equivalence, scientific text, English language, Uzbek language.

Kirish. Stilistika nuqtayi nazaridan qisqartma so‘zlar (abbreviations) tilning funksional uslublar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning shakli, semantik yuklanishi va qo‘llanish chastotasi nutqning rasmiy yoki norasmiyligiga qarab o‘zgaradi. Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartmalar ixchamlilik, tezkorlik, zamonaviylik, ekspressivlik kabi stilistik funksiyalarni bajaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda qisqartma so‘zlar (abbreviations) til iqtisodiyoti va kommunikativ samaradorlik tamoyillari bilan bog‘liq hodisa sifatida izohlanadi. Qisqartmalar nutqni ixchamlashtirish, axborotni tez va aniq yetkazish hamda zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarni qondirish vazifasini bajaradi. Stilistika nuqtayi nazaridan qisqartma birliklar tilning funksional uslublari bilan uzviy aloqada bo‘lib, ularning

qo'llanishi nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va adresat omiliga bog'liq holda o'zgaradi. Ilmiy manbalarda qisqartmalar ko'pincha akronim, initsializm, qisqartma so'z, grafematik qisqartma kabi turlarga ajratiladi. Ushbu birliklar nafaqat struktur jihatdan, balki stilistik yuklama nuqtayi nazaridan ham farqlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Qisqartma so'zlarning stilistik va pragmatik xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikda keng o'rganilgan bo'lib, xususan, David Crystal ingliz tilidagi abbreviatsiya jarayonini til taraqqiyoti va kommunikativ ehtiyojlar bilan bog'liq holda izohlaydi. Tarjimashunoslik doirasida Mona Baker hamda Peter Newmark qisqartmalarining ekvivalentlik va kontekstual moslik masalalarini ilmiy asoslab bergan. O'zbek tilshunosligida esa G.A.Salomova hamda M.Rahmonov tadqiqotlarida qisqartmalarining chog'ishtirma va semantik xususiyatlari yoritilib, ularning milliy til tizimidagi o'rni belgilab berilgan. Shuningdek, rus tilshunosligida A.V.Vasilchenko ilmiy uslubda termin va abbreviaturalarning funksional xususiyatlarini tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda chog'ishtirma-tipologik, funksional-stilistik hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o'zbek tillaridagi rasmiy, ilmiy va norasmiy matnlar asosida qisqartmalarining struktur-semantik xususiyatlari hamda ularning kommunikativ yuklamasi qiyosiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, statistik tahlil usuli orqali qisqartmalarining qo'llanish chastotasi va uslubiy differensiasiyasi aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Rasmiy nutq doirasida (ilmiy, huquqiy, ma'muriy, diplomatik uslub) qisqartma so'zlar neytral stilistik rangga ega bo'lib, emotsional-ekspressivlikdan holi bo'ladi. Ingliz tilida rasmiy qisqartmalar keng standartlashgan bo'lib, xalqaro terminologik tizimga moslashgan holda qo'llanadi. Masalan, ilmiy va rasmiy hujjatlarda qisqartmalar avval to'liq shaklda berilib, keyinchalik ixcham shaklda ishlatilishi stilistik norma hisoblanadi. O'zbek tilida rasmiy qisqartmalar asosan davlat boshqaruvi, ta'lim, huquq va ilmiy sohalarga taalluqli bo'lib, ular normativ-lug'aviy barqarorlikka ega. Bunday qisqartmalar rasmiylik, aniqlik va mantiqiylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Stilistik jihatdan ular rasmiy-neytral xususiyatga ega bo'lib, so'zlashuv nutqida kam qo'llanadi. Shu bois, rasmiy nutqda qisqartmalar stilistik vosita emas, balki terminologik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Norasmiy nutq (so'zlashuv, internet, ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy yozishmalar)da qisqartmalar butunlay boshqa stilistik xususiyat kasb etadi. Ingliz tilida norasmiy qisqartmalar emotsional-ekspressiv bo'lib, nutqiy yaqinlik, samimiylik va subyektiv munosabatni ifodalaydi. Ular ko'pincha kontekstga bog'liq holda baholovchi va pragmatik ma'no yuklaydi. O'zbek tilida norasmiy qisqartmalar asosan ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, kod-almashuv (code-switching) va transliteratsiya orqali nutqqa kirib keladi. Bu jarayon globalizatsiya va raqamli kommunikatsiya bilan chambarchas bog'liq. Stilistik jihatdan bunday qisqartmalar so'zlashuv nutqini jonlantiradi, biroq rasmiy matnlarda ularning qo'llanilishi stilistik me'yor buzilishi sifatida baholanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartmalarning rasmiy va norasmiy nutqda turlicha qo‘llanilishi ularning funksional-uslubiy differensiasiyasini ko‘rsatadi. Ingliz tilida qisqartmalar deyarli barcha uslublarda faol ishlatilsa, o‘zbek tilida ular qat’iy stilistik chegaralarga ega. Bu farq quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- tilning tarixiy rivoji;
- normativ-lug‘aviy siyosat;
- ijtimoiy-madaniy muhit;
- raqamli diskursning ta’siri.

Qisqartmalar stilistik jihatdan rasmiy nutqda – normativ va neytral, norasmiy nutqda esa – ekspressiv va pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning nazariy asoslari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma so‘zlar stilistik jihatdan bir xil funksiyani bajarmaydi. Ularning rasmiy va norasmiy nutqda qo‘llanilishi tilning funksional uslublari, kommunikativ vaziyat va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Qisqartmalar zamonaviy til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, stilistik tahlil ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlashga imkon beradi.

Ingliz tilida rasmiy uslub (ilmiy, huquqiy, diplomatik, biznes nutq)da qisqartmalar: neytral va standartlashgan bo‘ladi;

semantik aniqlikka ega;

dastlab to‘liq shaklda berilib, keyin qisqartma ishlatiladi. Misol uchun: *United Nations (UN)*, *World Health Organization (WHO)*, *Doctor of Philosophy (PhD)*. Stilistik jihatdan bu qisqartmalar terminologik aniqlik, matn ixchamligi va rasmiylikni saqlash vazifasini bajaradi. O‘zbek tili rasmiy nutqida qisqartmalar asosan:

davlat tashkilotlari;

huquqiy hujjatlar;

ilmiy va ma’muriy matnlarda qo‘llanadi. Misollar: *O‘zbekiston Respublikasi (O‘zR)*, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)*, *Oliy ta’lim muassasasi (OTM)*. Bu qisqartmalar rasmiy-neytral stilistik rangga ega bo‘lib, emotsionallikdan xoli. Norasmiy nutq (internet, ijtimoiy tarmoqlar, chatlar, og‘zaki muloqot)da ingliz qisqartmalari:

emotsional-ekspressiv;

subyektiv baholovchi;

kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Misollar: *LOL (laughing out loud)*, *OMG (oh my God)*, *IDK (I don’t know)*, *BRB (be right back)*. Stilistik jihatdan ular **samimiylik**, **tezkorlik**, **nutqiy yaqinlik**ni ifodalaydi. O‘zbek tilida norasmiy qisqartmalar:

ingliz tilidan o‘zlashgan;

transliteratsiya yoki kod-almashuv orqali kirib kelgan;

asosan yoshlar nutqida uchraydi. Misollar: *LOL* - “kulgi ifodasi”. Bu birliklar so‘zlashuv va internet uslubiga xos, rasmiy matnlarda esa stilistik xato hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartmalar: rasmiy nutqda — neytral, standart, terminologik aniqlikka ega; norasmiy nutqda — emotsional, ekspressiv, kommunikativ yaqinlikni kuchaytiruvchi

vosita sifatida xizmat qiladi. Stilistik jihatdan ingliz tilida qisqartmalar nutqning barcha uslublarida faol, o'zbek tilida esa ular asosan rasmiy va so'zlashuv nutqida funksional jihatdan ajralib turadi.

Ingliz tilida (rasmiy va ilmiy diskurs)

1. **UN** – *United Nations*

Official UN resolution was adopted unanimously.

2. **WHO** – *World Health Organization*

According to WHO guidelines, vaccination is essential.

3. **EU** – *European Union*

4. **GDP** – *Gross Domestic Product*

5. **PhD** – *Doctor of Philosophy*

6. **UNESCO** – *United Nations Educational, Scientific and Cultural*

Organization

7. **OECD** – *Organisation for Economic Co-operation and Development*

8. **NASA** – *National Aeronautics and Space Administration*

9. **IMF** – *International Monetary Fund*

10. **ICT** – *Information and Communication Technology*

O'zbek tilida (rasmiy-huquqiy va ilmiy diskurs)

11. **O'zR** – *O'zbekiston Respublikasi*

12. **BMT** – *Birlashgan Millatlar Tashkiloti*

13. **OTM** – *Oliy ta'lim muassasasi*

14. **DTS** – *Davlat ta'lim standarti*

15. **Vazirlar Mahkamasi (VM)**

16. **IIB** – *Ichki ishlar bo'limi*

17. **MTV** – *Maktabgacha ta'lim vazirligi*

18. **STIR** – *Soliq to'lovchi identifikatsiya raqami*

19. **YaIM** – *Yalpi ichki mahsulot*

20. **XTB** – *Xalq ta'limi bo'limi*

Ingliz va o'zbek tillarida qisqartma so'zlarning rasmiy, ilmiy va norasmiy nutqdagi qo'llanilishi amaliy-stilistik tahlil asosida o'rganildi. Tahlilda chog'ishtirma, funksional-stilistik, pragmatik va statistik metodlardan foydalanildi. Bu yondashuv qisqartmalarning nafaqat struktur, balki nutqdagi stilistik yuklamasini aniqlash imkonini berdi.

Rasmiy nutqda qisqartmalarning stilistik funksiyalari (amaliy tahlil)

Amaliy materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, rasmiy nutqda qisqartmalar ingliz va o'zbek tillarida asosan terminologik aniqlik va matn ixchamligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Ingliz tilida rasmiy qisqartmalar xalqaro standartlarga moslashgan bo'lib, ularning ko'pchiligi global kommunikatsiya ehtiyojidan kelib chiqib shakllangan. O'zbek tilida esa rasmiy qisqartmalar ko'proq milliy boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lib, ularning stilistik xususiyati rasmiy-neytral xarakterga ega. Amaliy tahlil shuni ko'rsatdiki,

rasmiy matnlarda qisqartmalar emotsional-ekspressivlikdan butunlay xoli, qat'iy normaga bo'ysungan holda qo'llanadi.

Statistik natijalarga ko'ra, rasmiy nutqdagi qisqartmalar umumiy misollarning 33,3% ini tashkil etadi. Bu holat rasmiy uslubda qisqartmalarning muhim kommunikativ vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Ilmiy nutqda qisqartmalarning funksional-stilistik tahlili

Ilmiy matnlarda qisqartmalar maxsus terminologik birlik sifatida faol ishlatiladi. Ingliz tilidagi ilmiy qisqartmalar (EFL, SLA, CEFR va boshqalar) konseptual aniqlik va ilmiy ixchamlikni ta'minlaydi. Ular ko'pincha xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun tushunarli bo'lgan birliklar hisoblanadi.

O'zbek ilmiy nutqida qisqartmalar ikki guruhga bo'linadi:

1. milliy ilmiy terminlar asosidagi qisqartmalar;
2. internatsional va o'zlashma qisqartmalar.

Amaliy tahlil natijasida aniqlanishicha, ilmiy nutqda o'zbek tilidagi qisqartmalarning 80% i milliy asosga ega, 20% i esa internatsional xarakterga ega. Stilistik jihatdan bu qisqartmalar ilmiy-rasmiy rangga ega bo'lib, subyektiv baholashdan holi. Ilmiy nutqdagi qisqartmalar umumiy misollarning 33,3% ini tashkil etib, ularning funksional barqarorligi yuqori ekanligi kuzatildi.

Norasmiy nutqda qisqartmalarning ekspressiv-stilistik tahlili

Norasmiy nutqda qisqartmalar butunlay boshqa stilistik xususiyat kasb etadi. Ingliz tilidagi norasmiy qisqartmalar nutqni jonlantiruvchi, emotsional-ekspressiv birliklar sifatida faol ishlatiladi. Ular ko'pincha baholovchi va pragmatik ma'no yuklaydi. O'zbek norasmiy nutqida esa qisqartmalar asosan ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, raqamli kommunikatsiya orqali ommalashgan. Amaliy materiallar shuni ko'rsatadiki, norasmiy o'zbek nutqidagi qisqartmalarning 100% i o'zlashma xarakterga ega. Statistik jihatdan norasmiy qisqartmalar ham umumiy misollarning 33,3% ini tashkil etadi. Biroq ularning stilistik ta'siri rasmiy va ilmiy nutqdagilarga nisbatan kuchliroq ekani aniqlanadi.

Ingliz va o'zbek tillari chog'ishtirishda amaliy natijalar

Chog'ishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida qisqartmalar barcha funksional uslublarda barqaror va faol qo'llanadi. O'zbek tilida esa qisqartmalarning stilistik faolligi nutq turiga qarab keskin farqlanadi.

Ingliz tilida qisqartmalar:

- rasmiy nutqda — terminologik;
- ilmiy nutqda — konseptual;
- norasmiy nutqda — ekspressiv vosita sifatida ishlatiladi.

O'zbek tilida esa:

- rasmiy nutqda — normativ;
- ilmiy nutqda — qisman internatsional;

norasmiy nutqda — asosan o‘zlashma va internetga xos birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, amaliy tahlil ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma so‘zlarning rasmiy va norasmiy nutqda stilistik jihatdan farqlanishini aniq ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari qisqartmalar til tizimida nafaqat ixchamlik vositasi, balki muhim stilistik va pragmatik birlik ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu bobda olingan xulosalar dissertatsiyaning keyingi bosqichida qisqartmalarning tarjimaviy, pragmatik va diskursiv tahlili uchun nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomova G.A. (2023). Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma so‘zlarining chog‘ishtirma tadqiqi. F.f.f.d.(PhD) dissertatsiyasi. Termiz.
2. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
3. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
4. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
5. Krongauz, M. A. (2001). *Семантическая типология: время и пространство*. Moskva.
6. Rahmonov, M. (2018). *Lingvistik terminlarning o‘zbek tiliga o‘tish jarayonida ma’no transformatsiyasi*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
7. Васильченко, А. В. (2010). *Termin i abbreviatura v nauchnom stile rechi*. Moskva.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934